

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Yusupov Shakir Xaitbayevich</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XORAZM SHAHARSOZLIK MADANIYATI TARAQQIYOTINING NATIJALARI	11-18
<i>Saparbaev Bunyod Khurrambek ogli</i> THE ART OF NEGOTIATION: KHIVA AND RUSSIA ENGAGEMENT UNDER MUHAMMAD RAHIMKHAN I (1806–1825)	19-28
<i>Tursunova Gavhar Begmurodovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIGA AHOLINI KO'CHIRISHDA MAHALLIY AHOLINING QARSHILIK HARAKATLARI (1890–1916-YILLAR)	29-32
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Baratov Otabek Aripovich</i> SHAHARLAR DEMOGRAFIYASI VA KLASSIFIKATSIYASIDAGI O'ZGARISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	33-40
<i>Сагатовна Зиёдахон Бахтияровна</i> МИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ТУРЦИЕЙ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	41-45
<i>Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna</i> STATISTIK NASHRLAR VA ADABIYOTLARDI TURKISTONNI ELEKTRLASHTIRISH MASALASI (XX ASRNING 20–50-YILLARI)	46-51
<i>Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li</i> FARG'ONA VODIYSI AHOLISINING ETNIK TARKIBI, ETNOSLARNING JOYLASHUVI VA ETNODEMOGRAFIK XUSUSIYATLARI (XIX ASR — XXI ASR BOSHLARI)	52-56

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich, Achilova Firuza Kurbanovna</i> MINTAQA IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	57-67
<i>Султанова Дина Файзрахмановна</i> НАУЧНАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО МЕХАНИЗМА В ЭКОНОМИКЕ ОТРАСЛИ КОНЕВОДСТВА	68-72
<i>Xushvaqtov Jasur Shuhrat o'g'li</i> KO'CHMAS MULKNI HAYOTIY SIKL YONDASHUVI ASOSIDA OMMAVIY BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	73-82
<i>Jabbarov Nurbek Atanazarovich</i> O'ZBEKISTON SANOATIGA ENERGIYA RESURSLARINING TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI	83-88

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Zaripova Hulkan Toxir qizi</i> O'ZBEKISTONDAGI TARIXIY-MADANIY JARAYONLARDI MARGINAL QATLAMLARNING O'RNI	89-95
---	-------

<i>Abdullayeva Saodat Nurillo qizi</i> PAZANDACHILIK MADANIYATI VA SALOMATLIK FALSAFASI: VOZEHNING “KONI LAZZAT XONI NE’MAT” ASARIDA TAOMLARNING TIZIMLASHTIRILISHI	96-99
<i>Rajabov Behruz Baxshillayevich</i> TINCHLIK VA HAMKORLIKNING FALSAFIY MOHIYATI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O’RNI.....	100-104
<i>Artigova Adolat Ataboyevna</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING “AL-KASHSHAF” ASARI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI	105-109
<i>Umarova Feruza</i> MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASHDA DIN VA DAVLAT MUNOSABATLARI TAHLILI	110-116
<i>Djalalova Nigora Xusanovna</i> IJTIMOIY-MADANIY TEXNOLOGIYALARNI O’RGANISHDA RAQAMLI ONG KONSEPSIYASI	117-120
<i>Ходжиметов Шахрух Русланбекович</i> ЭМИГРАЦИОННЫЕ И ИММИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ ВЛИЯНИЕ НА СТАБИЛЬНОСТЬ ОБЩЕСТВА	121-124
<i>Islamova Gulzamon Madiyevna</i> JADIDLAR DAVRIDA TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING FALSAFIY ASOSLARI.....	125-130
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i> HECI KONSEPSIYASI VA MAHDUMI A’ZAM MEROSI: BAG’RIKENGLIK, AKSIOLOGIK MUSHTARAKLIK, METODOLOGIK TAFOVUT, UMUMIY NUQTALAR VA FARQLAR HAMDA AGRAR TA’LIMDA INSONPARVARLIK G’OYALARINI INTEGRATSIYA QILISH MASALASI.....	131-136
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Baydjanova Iroda Abdullayevna</i> TARJIMADA HAZIL-MUTOYIBA KONSEPTINING SAQLANISHI MUAMMOLARI: “SHUM BOLA” ASARINING O’ZBEK, INGLIZ VA RUS TILLARIDAGI TARJIMALARI MISOLIDA	137-143
<i>Imomiddinova Nargiza</i> ASL XITOYCHA HARBIY TERMINLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI	144-154
<i>Sobirov Anvar Kuvandikovich</i> JONLI SO’ZLASHUV NUTQIDA SO’Z TARTIBINING LINGVOPOETIK VA LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI	155-159
<i>Азизова Насиба Бахритдиновна</i> ЯЗЫКОВАЯ ЛИЧНОСТЬ КАК КУЛЬТУРНЫЙ КОНЦЕПТ: РЕКОНСТРУКЦИЯ ИДЕЙ АЛИШЕРА НАВАИ И ИХ РЕЛЕВАНТНОСТЬ ДЛЯ СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ.....	160-168
<i>Ishankulova Diyora Allovidinovna</i> UMAR XAYYOM SHE’RIYATINING G’OYAVIY-MAZMUNII MOHIYATI VA ULARNING TARJIMADAGI TALQINI	169-174

<i>Olimjon Jalilov Muxidinovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK EPOSARIDA LINGVISTIK MODELLARNING QIYOSIY XUSUSIYATLARI	175-178
<i>Achilova Zuxra Qurbonovna</i> "MALLA SAVDOGAR" DOSTONI VARIANTLARIDA BAXSHIYONA JANG POLOTNOSI VA PEYZAJ ESKIZLARI	179-184
<i>Orazgalieva Ayjamal Marat qizi</i> SYNONYMIC AND PRAGMATIC VERBALISATION OF CHILD/BALA IN ENGLISH AND KARAKALPAK LEXICOGRAPHY	185-192
<i>Babayeva Irada Sabirovna</i> LINGUOCULTUROLOGICAL APPROACH TO THE STUDY OF EMPATHIC COMMUNICATION	193-198
<i>Тоштемурова Фарангиз Шухратовна</i> РАЗВИТИЕ СЛОВАРНОГО СОСТАВА СОВРЕМЕННОГО РУССКОГО ЯЗЫКА И РОЛЬ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ В ЕГО ОБОГАЩЕНИИ	199-202

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Utemuratova Sapargul Shamshetovna</i> EKOLOGIYA SOHASIDAGI JINOYATLARDA MAXSUS SUBYEKT TUSHUNCHASI VA MANSABDOR SHAXSLARNING JINOIY JAVOBGARLIGI	203-207
<i>Qilichev Xayrulla Mamatovich</i> FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK BITIMIDA ISHTIROK ETISHINING O'ZIGA XOS JIHATLARI	208-217
<i>Бурханова Шийрин Жамшитовна</i> ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПРАВОВАЯ ПОЛИТИКА И НОРМОТВОРЧЕСТВО: ВЗАИМОСВЯЗЬ И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ	218-223
<i>Akayeva Marapat Abduhalikovna</i> GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHDA HUQUQIY SIYOSAT: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING TAHLILI.....	224-232
<i>Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna</i> XOTIN-QIZLARNING JAMIYAT IJTIMOIIY-SIYOSIY HAYOTIDAGI O'RNI	233-240
<i>Хидоятлов Бахтиер Батырович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ЗНАНИЙ В ПОЛУЧЕНИИ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ	241-250
<i>Dadaboyeva Jumagul Anvarovna, Habibullayev Muhammadrajab Obidjonov</i> JAHON HAMJAMIYATINING GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHGA QARATAYOTGAN E'TIBORI	251-256
<i>Абдулжаппоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> МОБИЛЬНОЕ БАНКОВСКОЕ МОШЕННИЧЕСТВО: УГРОЗЫ, МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНИЯ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ	257-267
<i>Nasridinov Yigitali Borataliyevich</i> XOTIN-QIZLARNI TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH SOHASIDA DAVLAT SIYOSATI VA HUQUQIY ASOSLAR	268-276

<i>Mirzakarimova Dilafruz Doniyorjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT YORDAMIDA KIBERHUJUMLARNI ANIQLASH VA OLDINI OLISH	277-281
<i>Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li</i> O'ZBEKISTON KAPITAL BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA SUKUK INSTRUMENTLARINING INSTITUTSIONAL ROLI	282-289
<i>Нодирбекова Дилдона Абдумалик кизи</i> КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОСНОВЫ ПРАВА НА ДОСТУП К ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ИНФОРМАЦИИ И ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ АДМИНИСТРАТИВНОЙ ПРАКТИКИ	290-297
<i>Ahmadjonov Sultonbek Shukurillo o'g'li</i> QALBAKI PUL, AKSIZ MARKASI YOKI QIMMATLI QOG'OZLAR YASASH VA ULARNI O'TKAZISH JINOYATINING AYRIM JINOIY-HUQUQIY JIHATLARI	298-307
<i>Отлубаева Айгуль Бахрамовна</i> КЛАССИФИКАЦИЯ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРАВОНАРУШЕНИЙ В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ С ОПЫТОМ РЕСПУБЛИКИ КАЗАХСТАН	308-316
<i>Mukimbayev Otabek Sattarovich</i> GUVOHNING MAQOMINI HUQUQIY HIMOYALASHDA KONSEPTUAL YONDASHUVLAR.....	317-324
<i>Yakubov Mirzaxid Turabayevich</i> NORMATIV-HUQUQIY Hujjatlar ijrosini ta'minlashning Xorijiy modellari va milliy amaliyot uchun xulosalar	325-333
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> RAQAMLI TA'LIMDA KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TALABLARI.....	334-338
<i>Raxmatullaev Dilmurod Raxmatullayevich</i> PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA BO'LAJAK MUTAXASSISLARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	339-348
<i>Yusupova Kamola Nuriddinovna</i> NEYROPEDAGOGIKA TA'LIM TIZIMINING YANGI ILMIY TARMOG'I SIFATIDA.....	349-353
<i>Umurzoqov Baxtiyor Boxodirovich</i> ZAMONAVIY SHAROITDA HARBIY KADRLAR BOSHQARUVI TIZIMI SAMARADORLIGINING ILMIY-AMALIY ASOSLARI.....	354-358
<i>Qobilova Nilufar Xudoyshukurovna, Xujamova Dilobar Berdiyrovna</i> OLIY PEDAGOGIK TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING SHAXSIY VA KASBIY KONGRUENTLIGINI LOYIHAVIY YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MAZMUNI.....	359-366
<i>Xaitbayeva Durdona Zokirjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV RAQAMLI TA'LIM TIZIMINI LOYIHALASHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI	367-371

<i>Исмаилов Шухрат Абдусоат угли, Инназаров Маджид Амонович</i> МЕХАНИЗМЫ ВНЕДРЕНИЯ МОДЕЛИ ФИНАНСИРОВАНИЯ, ОСНОВАННОГО НА РЕЗУЛЬТАТАХ (PERFORMANCE-BASED FUNDING), В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ РУКОВОДЯЩИХ КАДРОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ	372-378
<i>Rakhmatova Madina Abdumumin kizi</i> IMPLEMENTATION OF PROGRAMS FOR AUTOMATIC DETECTION AND CORRECTION OF GRAMMATICAL ERRORS IN ENGLISH WRITING.....	379-384
<i>To'rayev Azamat Maqsudovich</i> TALABALARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA BO'SH VAQTNI TASHKIL ETISHNING RAQAMLI METODIKASI	385-390
<i>Mahmudova Farangiz Qurbonboy qizi</i> STUDENTS' ATTITUDES TOWARD AI USE IN ENGLISH LANGUAGE LEARNING: HELP OR HINDRANCE?	391-399
<i>Burxonova Muxlisa Murtoz qizi</i> O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIKLARIDAGI BADIY MATNLARNI O'QITISH ORQALI O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	400-404

Received: 16 February 2026

Accepted: 01 March 2026

Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

THE INSTITUTIONAL ROLE OF SUKUK INSTRUMENTS IN THE DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN'S CAPITAL MARKET

Mamatmurodov Farrux Farxod ugli

Tutor of Private law

Tashkent state university of law

Abstract. This article examines the contemporary concept of capital market development in the Republic of Uzbekistan within the framework of the Presidential Address to the Oliy Majlis dated December 26, 2025. The study analyzes the institutional role of sukuk instruments in deepening the capital market through a legal and comparative approach. It explores the economic and legal nature of sukuk, their distinction from conventional bonds, asset-backed structure, and risk-sharing mechanism. Particular attention is given to the limitations of the current civil and securities legislation of Uzbekistan, including the principle of unified ownership, the absence of a beneficial ownership doctrine, and the legal status of Special Purpose Vehicles (SPVs). Based on the experience of Malaysia and the United Kingdom, an institutional model for sukuk implementation is proposed. The findings suggest that sukuk may serve as a strategic instrument for capital market diversification, expansion of the investor base, and development of long-term sustainable financing mechanisms.

Keywords: sukuk, capital market, institutional development, SPV, beneficial ownership, sovereign sukuk, corporate sukuk, sustainable finance, financial diversification, legal modernization.

O'ZBEKISTON KAPITAL BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA SUKUK INSTRUMENTLARINING INSTITUTSIONAL ROLI

Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li

Xususiylar huquq fakulteti tyutori

Toshkent davlat yuridik universiteti

Email: mamatmurodovfirdavs@gmail.com

<http://www.orcid.org/0009-0002-4169-366X>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida kapital bozorini rivojlantirishning zamonaviy konsepsiyasi 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnoma kontekstida tahlil qilinadi. Tadqiqotda sukuk instrumentlarining kapital bozorini institutsional jihatdan chuqurlashtirishdagi roli huquqiy va qiyosiy yondashuv asosida ochib beriladi. Sukukning iqtisodiy-huquqiy tabiati, uning an'anaviy obligatsiyalardan farqli jihatlari, aktivga asoslanganlik va risklarni taqsimlash mexanizmi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston fuqarolik va qimmatli qog'ozlar qonunchiligidagi mavjud cheklovlar — mulk huquqining yagonaligi, beneficial ownership institutining mavjud emasligi hamda SPV mexanizmining huquqiy maqomi masalalari ko'rib chiqiladi. Malayziya va Buyuk Britaniya tajribasi asosida milliy institutsional model taklif etiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sukuk kapital bozorining diversifikatsiyasi, investor bazasining kengayishi va uzoq muddatli moliyalashtirish mexanizmlarini shakllantirishda muhim instrument sifatida baholanadi hamda qonunchilikka aniq takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: sukuk, kapital bozori, institutsional rivojlanish, SPV, beneficial ownership, suveren sukuk, korporativ sukuk, barqaror moliya, moliyaviy diversifikatsiya, huquqiy modernizatsiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N42>

Kirish. O'zbekiston Respublikasida kapital bozorini rivojlantirish masalasi 2025-yil 26-dekabrda e'lon qilingan Oliy Majlisga Murojaatnomada ustuvor strategik yo'nalish sifatida belgilandi. Unda ishlab chiqarish va iste'molning barqaror o'sishini ta'minlash uchun uzoq muddatli moliyaviy resurslar zarurligi ta'kidlanib, kapital bozori iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi muhim institutsional ustun sifatida e'tirof etildi. Mazkur yondashuv kapital bozorini bank kreditlashiga muqobil va uzoq muddatli investitsion mexanizm sifatida shakllantirish zaruratini anglatadi.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda ham kapital bozorining uzoq muddatli iqtisodiy o'sishdagi roli alohida qayd etiladi. Jumladan, R.Levine moliyaviy tizimning rivojlanganligi kapitalni samarali taqsimlash orqali iqtisodiy o'sishga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi [1, 889-bet]. Ushbu nazariy yondashuv kapital bozori institutsional jihatdan chuqur va diversifikatsiyalashgan bo'lishi lozimligini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, kapital bozorini rivojlantirish nafaqat an'anaviy obligatsiyalar emissiyasi bilan, balki muqobil moliyaviy instrumentlarni joriy etish bilan ham bog'liqdir.

Islomiy moliya nazariyasida esa sukuk aktivga asoslangan model sifatida qoraladi. AAOIFI standartlarida sukuk quyidagicha ta'riflanadi: "Sukuk teng nominal qiymatga ega bo'lgan hamda moddiy aktivlar, ulardan foydalanish huquqi va xizmatlarga nisbatan ajratilmagan (bo'linmas) mulkiy ulushni ifodalovchi investitsiya sertifikatlaridir" [2, 5-bet]. Ushbu ta'rif sukukni oddiy qarz instrumenti emas, balki real aktivga egalik yoki manfaat ulushini ifodalovchi qimmatli qog'oz sifatida talqin etadi.

Ilmiy adabiyotlarda sukukning iqtisodiy va huquqiy mohiyati chuqur tahlil qilingan. Masalan, M.Iqbal va A.Mirakhor sukukning obligatsiyalardan farqini An'anaviy obligatsiyalar egalari kreditor maqomida bo'lsa, sukuk egalari bazaviy aktivlarga nisbatan egalik (yoki manfaatli egalik) ulushiga ega bo'lib, mazkur aktivlar bilan bog'liq risk va foydalarni taqsimlashda bevosita ishtirok etadi deb izohlaydi [3, 187-bet].

Shuningdek, Z.Ahmed va hammualliflar sukuk investorining maqomini tahlil qilib, Sukuk investorlarning huquqiy talablarini aktivga asoslanganlik hamda risk va foydani taqsimlash prinsiplari asosida legitimlashtiradi (qonuniylashtiradi) deb ta'kidlaydi [4, 85-bet]. Bu fikr sukukni risklarni adolatli taqsimlash mexanizmi sifatida baholash imkonini beradi hamda uni uzoq muddatli infratuzilmaviy moliyalashtirish uchun barqaror instrument sifatida ko'rsatadi.

Demak, Prezident Murojaatnomasida belgilangan kapital bozorini chuqurlashtirish va moliyaviy instrumentlarni diversifikatsiya qilish vazifalari xalqaro ilmiy qarashlar bilan hamohangdir. Sukuk kapital bozorining institutsional rivojlanishini ta'minlovchi, aktivga asoslangan va risk-taqsimot mexanizmini nazarda tutuvchi muqobil model sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur maqolaning maqsadi — 26.12.2025-yildagi Murojaatnoma kontekstida sukuk instrumentlarining O'zbekiston kapital bozorida tutgan institutsional rolini huquqiy va qiyosiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Kapital bozorining iqtisodiy o'sishdagi roli.

2025-yil 26-dekabrda e'lon qilingan Oliy Majlisga Murojaatnomada kapital bozori iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi muhim institutsional ustun sifatida belgilandi. Mazkur yondashuv kapital bozorini bank sektoriga qo'shimcha emas, balki uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishning mustaqil mexanizmi sifatida shakllantirish zaruratini anglatadi. Iqtisodiy nazariyada moliyaviy tizimning rivojlanganligi iqtisodiy o'sish sur'atlariga bevosita ta'sir ko'rsatishi asoslab berilgan. Xususan, R.Levine moliyaviy vositachilik va kapital taqsimotining

samaradorligi o'sish omili ekanini ta'kidlab, Moliyaviy tizimlar kapital resurslarini eng yuqori samaradorlikka ega sohalarga yo'naltirish orqali iqtisodiy o'sish jarayonlariga bevosita ta'sir qiladi deya qayd etadi [5, 889-bet]. Ushbu nazariy xulosa kapital bozori real sektorga resurslarni samarali yo'naltirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishini ko'rsatadi.

Uzoq muddatli moliyalashtirish konsepsiyasi ayniqsa infratuzilmaviy loyihalar, energetika, transport va sanoat klasterlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bank kreditlari ko'pincha qisqa yoki o'rta muddatli bo'lib, yuqori likvidlik talablari bilan bog'liq bo'ladi. Kapital bozori esa obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar orqali uzoq muddatli resurslarni safarbar etish imkonini beradi. Ross Levine va S.Zervos ham fond bozorining rivojlanganligi investitsiya faolligini oshirishini empirik asosda ko'rsatgan [6, 535-bet].

Kapital bozori bank sektoriga alternativ mexanizm sifatida iqtisodiy tizimning diversifikatsiyasini ta'minlaydi. Bank tizimining haddan tashqari ustunligi moliyaviy risklarning konsentratsiyasiga olib kelishi mumkin. Allen va Gale moliyaviy tizimning bankka asoslangan va bozorga asoslangan modellari o'rtasidagi farqlarni tahlil qilib, bozorga asoslangan model kapitalni keng investorlar bazasi orqali safarbar etishini ta'kidlaydi [7, 23-bet]. Shu ma'noda kapital bozori iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlovchi institutsional mexanizm hisoblanadi.

Murojaatnomada global depozitariylarni milliy fond bozoriga jalb qilish tashabbusi ilgari surildi. Bu tashabbus O'zbekiston kapital bozorini xalqaro moliyaviy infratuzilma bilan integratsiyalash, investitsiyalar oqimini oshirish va xorijiy investorlar uchun shaffof mexanizm yaratishga xizmat qiladi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, depozitariy tizimining rivojlanganligi investor ishonchini mustahkamlaydi [8, 29-bet].

“Kapital bozori to'g'risida”gi yangi qonun loyihasining strategik ahamiyati.

Kapital bozorini rivojlantirishning muhim sharti — zamonaviy va tizimli huquqiy asosni yaratishdir. Murojaatnomada “Kapital bozori to'g'risida”gi yangi qonun loyihasini tez fursatda qabul qilish zarurligi qayd etildi. Huquqiy modernizatsiya kapital bozori ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarni aniq tartibga solish, investor huquqlarini himoya qilish va bozor shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi. La Porta va hammualliflar investor huquqlarini samarali himoya qiluvchi huquqiy tizim fond bozorining rivojlanishiga bevosita ta'sir qilishini ko'rsatadi [9, 1137-bet]. Ushbu ilmiy xulosa kapital bozori rivojlanishida huquqiy tizimning ustuvor ahamiyatini tasdiqlaydi. Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik yangi qonun loyihasini ishlab chiqishda muhim omil hisoblanadi. Jahon banki va boshqa institutlar kapital bozori infratuzilmasini mustahkamlashda normativ-huquqiy uyg'unlikni asosiy omil sifatida baholaydi [10, 78-bet].

Instrumentlar diversifikatsiyasi masalasi ham strategik ahamiyatga ega. Faqat aksiyalar va obligatsiyalar bilan cheklanib qolgan bozor iqtisodiy ehtiyojlarni to'liq qondira olmaydi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, sukuk, yashil obligatsiyalar va boshqa innovatsion instrumentlar kapital bozorini chuqurlashtiradi [11, 187-bet].

Institutsional chuqurlashuv va moliyaviy innovatsiyalar.

Institutsional chuqurlashuv kapital bozori infratuzilmasining rivojlanishi, investorlar bazasining kengayishi va yangi moliyaviy instrumentlarning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir. Yangi moliyaviy instrumentlar real sektor ehtiyojlariga moslashuvchan moliyalashtirish mexanizmlarini yaratadi. AAOIFI standartlarida sukuk real aktivlarga egalik ulushini ifodalovchi sertifikat sifatida ta'riflanadi. Bu ta'rif kapital bozorida innovatsion va aktivga

asoslangan instrumentlarning ahamiyatini ko'rsatadi. Bozor ishonchliligi investorlarni himoya qilish mexanizmlari bilan bevosita bog'liq. Coffee investorlarni himoya qilish mexanizmlarining zaifligi fond bozorining rivojlanishiga to'sqinlik qilishini ta'kidlaydi [12, 6-bet]. Demak, kapital bozori samarali ishlashi uchun oshkoralik, korporativ boshqaruv va nazorat mexanizmlari mustahkam bo'lishi lozim. Barqaror moliyalashtirish konsepsiyasi ham kapital bozorining zamonaviy yo'nalishlaridan biridir. Schoenmaker va Schramade barqaror moliyaviy tizim uzoq muddatli iqtisodiy o'sish bilan uyg'unlikda bo'lishi kerakligini qayd etadi [13, 41-bet]. Ushbu yondashuv kapital bozorini qisqa muddatli spekulativ operatsiyalar emas, balki real iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiluvchi mexanizm sifatida ko'rishni talab etadi.

Shunday qilib, Prezident Murojaatnomasida ilgari surilgan kapital bozori konsepsiyasi xalqaro ilmiy qarashlar bilan uyg'un bo'lib, uning institutsional chuqurlashuvi huquqiy modernizatsiya, moliyaviy innovatsiyalar va investorlar himoyasi mexanizmlarini mustahkamlash orqali amalga oshirilishi lozim. Mazkur jarayonda kapital bozori bank sektoriga alternativ, uzoq muddatli va barqaror moliyalashtirish manbai sifatida iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biriga aylanishi mumkin.

Sukukning iqtisodiy-huquqiy tabiati.

Sukuk zamonaviy kapital bozorida aktivga asoslangan moliyaviy instrument sifatida shakllangan bo'lib, uning iqtisodiy-huquqiy mohiyati an'anaviy qarz majburiyatidan tubdan farq qiladi. AAOIFI standartlarida sukuk "tangible assets, usufructs and services"ga nisbatan teng ulushli egalikni ifodalovchi sertifikat sifatida ta'riflanadi. Ushbu ta'rif sukukning aktivga asoslanganligini va investor huquqi real iqtisodiy obyekt bilan bog'lanishini ko'rsatadi.

Aktivga asoslanganlik sukukning asosiy institutsional xususiyatidir. Bu yerda moliyalashtirish real mulk, xizmat yoki foydalanish huquqiga tayangan holda amalga oshiriladi. M.Iqbal va A.Mirakhor sukukni aktiv bilan ta'minlangan va real sektor bilan bevosita bog'langan moliyalashtirish modeli sifatida baholaydi. Shu sababli sukuk spekulativ operatsiyalardan ko'ra iqtisodiy mazmunga ega bo'lgan loyihalarga yo'naltiriladi. Risk va foydaning taqsimlanishi sukukning yana bir muhim belgisidir. Islomiy moliya nazariyasida moliyaviy operatsiyalar risk-sharing tamoyiliga asoslanadi. M. Usmani "Islamic finance is built on the principle of risk sharing rather than risk shifting" deya qayd etadi [14, 27-bet]. Bu shuni anglatadiki, sukukda investor va emitent o'rtasida risk adolatli taqsimlanadi.

Sukuk qarz emas, balki aktivdan manfaat modeliga asoslanadi. Z.Ahmed va hammualliflar sukuk investorini "asset-backed and risk-sharing instrument" orqali himoyalangan subyekt sifatida tavsiflaydi. Demak, sukuk investorining huquqiy maqomi oddiy kreditor emas, balki iqtisodiy manfaat egasi sifatida shakllanadi.

Sukuk va an'anaviy obligatsiya: institutsional farqlar.

Sukuk va an'anaviy obligatsiya o'rtasidagi asosiy farq risk tabiatida namoyon bo'ladi. Obligatsiyada investor kredit riskiga duch keladi, ya'ni emitentning to'lovga qobiliyatiga bog'liq holda tavakkal qiladi. Fabozzi obligatsiyani qarz majburiyati sifatida ta'riflab, uning mohiyati foiz to'lovlari va nominal summaning qaytarilishiga asoslanganini ko'rsatadi.

Sukukda esa risk aktiv riski sifatida namoyon bo'ladi. Investor aktivdan olinadigan daromadga bog'liq ravishda foyda ko'radi. Iqbal va Mirakhor ta'kidlaganidek, sukuk egalari asosiy aktivlarga nisbatan mulkiy manfaat (yoki egalik) ulushiga ega bo'lib, mazkur aktivlar bilan bog'liq risk va foydalarni taqsimlashda ishtirok etadi [15, 187-bet]. Bu model investorni aktivning iqtisodiy natijalari bilan bevosita bog'laydi.

Investor maqomi ham tubdan farqlanadi. Obligatsiyada investor kreditor sifatida ishtirok etsa, sukukda u ulushli manfaat egasi sifatida qatnashadi. AAOIFI standartlari sukukni mulk ulushini ifodalovchi sertifikat deb e'tirof etadi. Shu sababli sukuk investorining maqomi majburiyat huquqidan ko'ra ashyo yoki mulkiy manfaat elementlariga yaqinlashadi.

Amaldagi fuqarolik va qimmatli qog'ozlar qonunchiligida cheklovlar.

Sukukni O'zbekiston kapital bozoriga joriy etish masalasi, avvalo, amaldagi fuqarolik va qimmatli qog'ozlar qonunchiligidagi konseptual cheklovlarni tahlil qilishni talab etadi. Mavjud huquqiy tizimda mulk huquqining yagonaligi prinsipi ustuvor hisoblanadi. Fuqarolik qonunchiligida mulk huquqi egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish vakolatlarining yagona subyektda mujassamligi orqali ifodalanadi. Bu model "dual ownership" yoki iqtisodiy va yuridik egalikni ajratish institutini tan olmaydi.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda esa sukukning muvaffaqiyatli ishlashi ko'p hollarda beneficial ownership – iqtisodiy egalik konsepsiyasiga tayangan holda amalga oshirilishi ta'kidlanadi. M.Iqbal va A.Mirakhor sukuk egalari aktiv ustidan "ownership interest"ga ega bo'lishini qayd etadi. Bu esa iqtisodiy manfaatni yuridik egalikdan ajratish imkonini beruvchi modelni nazarda tutadi. O'zbekiston qonunchiligida beneficial ownership instituti mustaqil huquqiy kategoriya sifatida mavjud emas. La Porta va hammualliflar investor huquqlarini samarali himoya qilish mexanizmlari bo'lmagan huquqiy tizimlarda kapital bozori rivojlanishi sekinlashishini ko'rsatadi. Shu ma'noda, sukuk investori iqtisodiy manfaat egasi sifatida tan olinmasa, uning huquqiy maqomi an'anaviy kreditor maqomiga qisqarib qolishi mumkin.

SPV (Special Purpose Vehicle) mexanizmining huquqiy maqomi ham muhim masaladir. Sukuk emissiyasida SPV aktivni ajratish, investor manfaatlarini himoya qilish va bankrotlik riskini cheklash vazifasini bajaradi. Godlewski va hammualliflar sukuk strukturasida SPV "bankruptcy remote entity" sifatida ishlashini qayd etadi. O'zbekiston qonunchiligida esa maxsus maqsadli jamiyat instituti aniq va mustaqil normativ asosga ega emas.

Kapital bozori islohotlari doirasida sukukni integratsiya qilish imkoniyatlari.

Kapital bozori islohotlari doirasida sukukni integratsiya qilish uchun yangi "Kapital bozori to'g'risida"gi qonunda alohida norma kiritilishi zarur. Bu norma sukukni qimmatli qog'ozlarning mustaqil turi sifatida e'tirof etishi va uning huquqiy tabiatini belgilashi lozim. AAOIFI sukukni teng ulushli egalikni ifodalovchi sertifikat sifatida ta'riflaydi. Shu ta'rif milliy qonunchilikda ham o'z aksini topishi maqsadga muvofiq.

Maxsus maqsadli jamiyat (SPV) institutini normativ mustahkamlash ham zarur. SPV mustaqil yuridik shaxs sifatida aktivni balansdan ajratish va investorlar manfaatlarini himoya qilish imkonini beradi. Fabozzi SPVni sek'yuritizatsiya jarayonining asosiy elementi sifatida baholaydi. Demak, SPVning huquqiy maqomi aniq belgilanmasa, sukukning aktivga asoslanganligi amalda ta'minlanmaydi. Aktivni ajratish va bankrotlikdan himoya mexanizmlari ham muhimdir. Hasan va Dridi islomiy moliya institutlari moliyaviy inqiroz davrida barqarorroq bo'lganini qayd etadi. Bu, qisman, aktivga asoslanganlik va riskning taqsimlanishi bilan izohlanadi. Shu sababli milliy qonunchilikda sukuk aktivlarini emitentning boshqa majburiyatlaridan ajratish mexanizmi mustahkamlanishi lozim.

Xalqaro tajriba asosida institutsional model taklifi.

Malayziya modeli.

Malayziya sukuk bozorini rivojlantirishda yetakchi davlatlardan biridir. Bu yerda regulyator — Securities Commission Malaysia — islomiy kapital bozori ustidan maxsus

vakolatlarga ega. Iqbal va Mirakhor Malayziya modelini “kompleks (yaxlit) tartibga solish tizimi” asosida shakllangan tizim sifatida baholaydi.

Shariat kengashi instituti ham muhim rol o'ynaydi. Bu kengash sukuk emissiyasining shariat talablariga muvofiqligini baholaydi va normativ-huquqiy aniqlikni ta'minlaydi. Wilson Malayziya tajribasida shariat nazoratining investor ishonchini oshirishini qayd. Malayziyada sukukning keng qo'llanilishi davlat va korporativ sektor uchun muqobil moliyalashtirish imkoniyatlarini yaratdi. Bu model kapital bozorining chuqurlashuviga xizmat qilgan.

Buyuk Britaniya modeli.

Buyuk Britaniya sukukni alohida islomiy qonun qabul qilmasdan, existing law adaptation modeli orqali joriy etdi. Bu yondashuv mavjud qonunchilikka moslashtirish orqali amalga oshirildi. HM Treasury sukukni Alternative Finance Investment Bonds (AFIB) sifatida tasnifladi [16, 9-bet].

AFIB modeli sukukni konvensional obligatsiyalar bilan tenglashtirgan holda soliq neytralligini ta'minladi. Schoenmaker barqaror moliyaviy tizim uchun normativ moslashuvchanlik muhim ekanini ta'kidlaydi. Buyuk Britaniya tajribasi sukukni amaldagi huquqiy tizimga integratsiya qilish mumkinligini ko'rsatadi.

Kapital bozorini chuqurlashtirish mexanizmi sifatida.

Sukuk O'zbekiston kapital bozorini chuqurlashtirishi mumkin bo'lgan institutsional mexanizm sifatida nazariy jihatdan uchta asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi: investor bazasini kengaytirish, xalqaro kapital oqimlarini diversifikatsiya qilish va real sektor bilan moliyaviy tizim o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni mustahkamlash.

Kapital bozorining chuqurligi odatda investorlar soni, instrumentlar xilma-xilligi va likvidlik darajasi bilan belgilanadi. Levine va Zervos fond bozorining rivojlanishi investitsiya faolligini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini empirik asosda ko'rsatgan. Shu ma'noda, sukuk kapital bozorini faqat hajm jihatidan emas, balki sifat jihatidan ham chuqurlashtiruvchi instrument hisoblanadi.

Investor bazasini kengaytirish sukukning eng muhim institutsional funksiyalaridan biridir. An'anaviy obligatsiyalarga investitsiya qilmaydigan, lekin shariatga mos moliyaviy instrumentlarga qiziqish bildiradigan investorlar segmenti mavjud. Iqbal va Mirakhor sukuk global investorlar uchun “ethical and asset-backed alternative” sifatida qabul qilinishini ta'kidlaydi. Demak, sukuk O'zbekiston kapital bozoriga yangi investor qatlamini olib kirishi mumkin.

Yaqin Sharq va Janubi-Sharqiy Osiyo kapitalini jalb qilish ham strategik ahamiyatga ega. Global Islamic Finance Report ma'lumotlariga ko'ra, sukuk bozori asosan Malayziya va GCC mamlakatlarida konsentratsiyalashgan. Agar O'zbekiston sukuk emissiyasini yo'lga qo'ysa, ushbu mintaqalardagi investitsiya fondlari va islomiy moliya institutlari uchun yangi investitsion platforma yaratiladi.

Davlat suveren sukuki – strategik instrument sifatida.

Davlat suveren sukuki nazariy modelda strategik moliyalashtirish vositasi sifatida qaraladi. Suveren sukuk byudjetdan tashqari moliyalashtirish imkonini beradi va davlat qarzining strukturaviy diversifikatsiyasini ta'minlaydi. Godlewski va hammualliflar suveren sukuk davlat moliyasini diversifikatsiya qilish vositasi ekanini qayd etadi.

Byudjetdan tashqari moliyalashtirish mexanizmi infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirishda ayniqsa dolzarbdir. Energetika, yo'l qurilishi, logistika markazlari kabi yirik

loyihalar uzoq muddatli va barqaror moliyaviy resurslarni talab etadi. Hasan va Dridi islomiy moliya instrumentlari moliyaviy inqiroz davrida nisbatan barqarorroq bo'lganini qayd etadi. Bu esa suveren sukukni uzoq muddatli va barqaror moliyalashtirish vositasi sifatida ko'rsatadi. Suveren sukuk xalqaro reytingga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xalqaro kapital bozorlariga chiqish davlatning moliyaviy ochiqligi va shaffofligini oshiradi. Coffee investorlar himoyasi mexanizmlari rivojlangan mamlakatlarda kapital oqimi ko'proq bo'lishini ta'kidlaydi (Coffee J., Columbia Law Review, 2001, p. 6). Demak, suveren sukuk emissiyasi moliyaviy tizimning institutsional sifatini namoyish etuvchi indikator sifatida ham xizmat qiladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 2025-yil 26-dekabrda e'lon qilingan Oliy Majlisga Murojaatnomada belgilangan kapital bozori konsepsiyasi O'zbekiston moliya tizimini institutsional jihatdan chuqurlashtirishga qaratilgan strategik yo'nalishni ifodalaydi. Unda kapital bozori iqtisodiy o'sishning muhim ustuni sifatida e'tirof etilib, uzoq muddatli moliyaviy resurslarni safarbar etish zarurati alohida ta'kidlandi. Ushbu normativ-siyosiy yondashuv sukuk instrumentlarini joriy etish uchun konseptual va institutsional asos yaratadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, sukuk kapital bozorining oddiy alternativ vositasi emas, balki uning institutsional arxitekturasini kengaytiruvchi mexanizmdir. Aktivga asoslanganlik, risk va foydaning taqsimlanishi hamda investorning iqtisodiy manfaatga egaligi sukukni an'anaviy obligatsiyalardan ajratib turadi. Shu jihatdan, sukuk kapital bozorining chuqurlashuvini ta'minlaydi, chunki u investor bazasini kengaytiradi, real sektor bilan moliyaviy tizim o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlaydi va yangi investitsion segmentlarni shakllantiradi.

Uzoq muddatli va barqaror moliyalashtirish mexanizmi sifatida sukuk infratuzilmaviy loyihalar, energetika, transport va sanoat klasterlarini moliyalashtirishda samarali vosita bo'lishi mumkin. Xalqaro tajriba sukukning moliyaviy barqarorlikka ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Shu sababli, sukuk O'zbekiston iqtisodiyotining uzoq muddatli strategik manfaatlariga mos keladigan moliyaviy instrument sifatida baholanishi mumkin.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi normativ-huquqiy takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, maxsus maqsadli jamiyat (SPV) institutini qonunchilik darajasida mustahkamlash zarur. SPV sukuk emissiyasida aktivni ajratish, investor manfaatlarini himoya qilish va bankrotlik riskini cheklash mexanizmi sifatida xizmat qiladi.

Ikkinchidan, beneficial ownership normasi fuqarolik qonunchiligiga joriy etilishi maqsadga muvofiq. Sukuk investori iqtisodiy manfaat egasi sifatida tan olinmasa, uning huquqiy maqomi kreditor maqomiga qisqarib qoladi. Investor huquqlarini samarali himoya qilish kapital bozorining rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, iqtisodiy egalik tushunchasini normativ darajada mustahkamlash zarur.

Uchinchidan, sukukni qimmatli qog'ozlarning mustaqil turi sifatida alohida tasniflash lozim. AAOIFI sukukni aktivlarga egalik ulushini ifodalovchi sertifikat sifatida ta'riflaydi. Milliy qonunchilikda ham ushbu huquqiy tabiat aniq belgilanishi zarur.

To'rtinchidan, soliq neytralligi mexanizmini joriy etish muhimdir. Buyuk Britaniya tajribasida sukuk Alternative Finance Investment Bonds (AFIB) sifatida tasniflanib, konvensional obligatsiyalar bilan teng soliq rejimiga ega etib belgilangan. Agar soliq yuklamasi ikki martalik yoki noqulay shaklda belgilansa, sukuk amaliyotda raqobatbardosh bo'la olmaydi.

Shunday qilib, sukukni joriy etish O'zbekiston kapital bozorini chuqurlashtirish, investor bazasini kengaytirish va real sektorni uzoq muddatli moliyalashtirishga xizmat

qiluvchi institutsional islohot sifatida namoyon bo'ladi. Normativ-huquqiy modernizatsiya va xalqaro tajribaga tayangan holda ishlab chiqilgan model milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Levine R., Finance and Growth: Theory and Evidence, 2005, p. 889.
2. AAOIFI, Shari'ah Standard No. 17: Investment Sukuk, 2017, p.5.
3. Iqbal M., Mirakhor A., An Introduction to Islamic Finance, 2011, p. 187.
4. Ahmed E.R., Islam M.A., Ariffin K.H.K., Asian Social Science, 2015, Vol. 11, No. 13, p. 85.
5. Levine R., Finance and Growth: Theory and Evidence, 2005, p. 889.
6. Levine R., Zervos S., Stock Markets, Banks, and Economic Growth, 1998, p. 537.
7. Allen F., Gale D., Comparing Financial Systems, 2000, p.23.
8. Claessens S., Klingebiel D., Schmukler S., World Bank Research Observer, 2002, p.29.
9. La Porta R., Lopez-de-Silanes F., Shleifer A., Vishny R., Journal of Finance, 1997, p.1137.
10. World Bank, Global Financial Development Report, 2019, p.78.
11. Iqbal M., Mirakhor A., An Introduction to Islamic Finance, 2011, p.187.
12. Coffee J., Columbia Law Review, 2001, p.6.
13. Schoenmaker D., Schramade W., Principles of Sustainable Finance, 2019, p.41.
14. Usmani M.T., An Introduction to Islamic Finance, 2002, p.27.
15. Iqbal M., Mirakhor A., 2011, p.187.
16. HM Treasury, UK Sovereign Sukuk Prospectus, 2014, p.9.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).